

TABRIK VA TILAKLARNING NUTQIMIZDAGI O'RNI

Ernazarova Nargiza Xidirovna

*O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi katta o'qituvchisi
nargizaernazarova1111@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabrik va tilak nutq aktlarining hayotimizning ajralmas bir qismi ekanligi, ularning turli xil muhim voqea va bayramlar, ya'ni tug'ilgan kun, to'y marosimlari, yutuqlarga erishish, milliy va oilaviy bayramlarda insonlarning bir-biriga bo'lgan his tuyg'ularini va hayajonlarini ifodalashdagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutq janri, tabrik, tilak, muloqat, rasmiy, norasmiy, munosabat, voqea, hodisa.

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что речевые акты поздравлений и пожеланий являются неотъемлемой частью нашей жизни, их роль в выражении чувств и волнения людей друг к другу в различные важные события и праздники, а именно дни рождения, свадьбы, достижения, национальные и семейные праздники.

Abstract. This article discusses the fact that speech acts of congratulation and wishes are an integral part of our life, their role in expressing feelings and excitement of people to each other on various important events and holidays, namely birthdays, weddings, achievements, national and family holidays.

Har bir madaniyatda muloqat normalari tabriklar va tilaklarni ifodalash odat tusiga kirgan vaziyat va shakllarni belgilaydi. Ba'zi mamlakatlar, masalan Rossiya muloqat madaniyatida norasmiylik qadrlanadi, shuning uchun tabriklar va tilaklar ko'pincha uzoq shaxsiy bayonotlar hisoblanadi, rasmiy xushmuomalikni qadrlaydigan madaniyatlarda masalan, nemis tabriklari uchun qisqa neytral klishe ishlatiladi. Inglizlarda esa tabrik nutqlari kamroq so'zlardan tashkil topadi, ya'ni qisqaroq bo'ladi, yapon xalqi ko'proq iboralarni ishlatishni afzal ko'rishadi.

Tabriklash – bu ekspressiv nutq harakati, epideytik nutq janri bo'lib, qabul qiluvchi uchun muhim bo'lgan quvonchli voqeaga nisbatan o'z xursandligi va qiziqishini hushmuomalalik bilan ifodalashdir.

Tabriklashning maqsadi – munosabatlarda kerakli ohangni saqlab qolish uchun qabul qiluvchida ijobiy hissiy munosabatni uyg'otishdir. Boshqa turdagi harakatlar singari, tabriklar umumiy qabul qilingan xatti-harakatlar normalari bilan bog'liq va barqaror ifoda usullariga ega. Muvaffaqiyatli tabrik iltifotdan farq qiladi, chunki u ishning haqiqiy holatini yoki qabul qiluvchi va samimiylik uchun bo'lgan voqeani tasvirlaydi (ijtimoiy meyorlar ushbu voqeani adresat, ya'ni qabul qiluvchi uchun ham, so'zlovchi uchun ham ijobiy deb baholaydi).



Tabriklashning sabablari odatda tug'ilgan kun, to'y munosabatlari bilan, bayramlar, hayotda erishgan muvaffaqiyatlari, biror bir qulay voqea kabilardir.

Tabriklash odatda yaqin nutq harakati, tilak bilan birga keladi. Bayramning boshlanishi va birgalikdagi quvonchni e'lon qiladigan tabriklardan farqli o'laroq, tilak hozirgi yoki kelajakni (masalan, baxt va omad tilash) tasvirlaydi va hayrixohlikni ifodalaydi. Istak odatda tabrikdan keyin keladi, masalan, "Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman! Sizga sog'lik, baxt va omad tilayman!"

Chiroyli va ixcham tabrik yozish yoki aytish juda qiyin ish. Tabriklashning to'g'ri so'zlari va uslubini tanlash har doim juda muhimdir. Bugungi kunda ko'pchilik tabriklar tayyor shablonlardan foydalanadi, ammo bu odamning turli xil insonlardan bir xil tabrik olishiga olib keladi, bu esa uni qadrsizlantiradi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun tabriklash odob-ahloqining oddiy qoidalariga amal qilishimiz kerak.

Kompaniyada tabriklash odob-ahloqi ko'p jihatdan boshqaruv turiga va korporativ madaniyatga bog'liq. Agar sizda hamma norasmiy muloqat qiladigan do'stona jamoangiz bo'lsa, unda haddan tashqari rasmiy tabrik noo'rin bo'ladi. Shuning uchun, eslash kerak bo'lgan eng muhim narsa – kompaniyangizga e'tibor berishdir. Agar kompaniyangizdagi muloqat uslubi rasmiy bo'lsa, bunda hamkasb yoki menejerni tabriklash yaqin odamlarni tabriklashdan ko'ra qiyinroqdir. Agar siz tabriklashning asosiy qoidalari va tuzilishini bilsangiz, vazifa darhol osonlashadi. Masalan, biznes tabriklarining asosiy jihati bu ularning o'ziga xosligi, qisqa va lo'ndaligidadir. Siz aytayotgan yoki yozgan har bir narsa diqqat bilan o'ylangan va me'yorida bo'lishi kerak. Tabriklar matni juda uzun va maqtov va tilaklar bilan to'lib ketmasligi kerak. Oddiy va qisqa tabriklar yaxshiroq qabul qilinadi. Tilaklar qabul qiluvchining yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, sevimli mashg'ulotlari va shu kabilarga muvofiq amalga oshiriladi. Agar siz tabrik qabul qiluvchini shaxsan yaxshi bilsangiz, uning ijobiy shaxsiy fazilatlarini, kasbiy yutuqlarini eslashingiz mumkin.

Yaxshi tilaklar bu boshqalarga bo'lgan istak va umidlarimizni aks ettiruvchi birikmalardir. Biz odatda tilaklarimizda sog'liq, baxt, muvaffaqiyat va barcha orzular ro'yobini tilaymiz. Tilaklar biror bir shaxsga qaratilgan yoki umumiy bo'lishi mumkin va ular aniq bir hodisaga qaratilgan yoki shunchaki qo'llab-quvvatlovchi hamda ruhlantiruvchi so'zlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Tabrik va tilaklar hayotimizda muhim o'rin tutadi, chunki ular bizni boshqa insonlar bilan munosabatimizni mustahkamlashga, ularga bo'lgan muhabbatimiz va e'tiborimizni ifodalaydi. Bundan tashqari ular atrofimizda pozitiv muhit yaratadi va boshqalarga yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi. Biroq, shuni yodda tutish lozimki, tabrik va tilaklar samimiy hamda sof tuyg'ularimizni o'zida aks ettirishi kerak. Ular shunchaki rasmiyatchilik yuzasidan majburiy aytilgan so'zlardan iborat bo'lishi kerak emas, aksincha, tabrik va tilaklar chin yurakdan chiqqandagina eng yaxshi tabrik hisoblanib boshqa shaxsga bo'lgan munosabatimizni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, tabrik va tilaklar bizning boshqalar bilan aloqamizning muhim qismlaridandir. Ular bizning his-tuyg'u va hayajonlarimizni ifodalashga, tabriklayotgan insonni qo'llab-quvvatlashga, ruhlantirishga hamda ijobiy muhit yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Варфоломеева, И. В., Кулемина, К. В. Некоторые особенности экспрессивных речевых актов поздравления и пожелания в английском, немецком и русском языках // Альманах современной науки и образования. Тамбов: Грамота, 2013. № 12. ISSN 1993-5552.

2. Меньшенина С. В. Классификация речей, жанры эпидейктической речи // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Социально-гуманитарные науки. – 2005. – Вып. 4. – ISSN 2413-1024

3. Вдовина Е. В. Поздравление и пожелание в речевом этикете: концептуальный и коммуникативный анализ: автореф. дисс.... к. филол. н. М., 2007.